

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FVV VA UNING QUYI
TUZILMALARIDA SHAXSIY TARKIBNING RUHIY
TAYYORGARLIGINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA AMALGA
OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR**

Xatamova Gulbaxor Abdumo'min qizi
Tillar kafedrası katta o'qituvchisi.

Marqayev A. D.
5batalyon kursanti

Annotatsiya

Ushbu maqolada favqulodda vaziyatlar yong‘inlarning barcha xavfli holatlari, turli maskanlarda va har qanday vaziyatlarda shaxsiy tarkibning zimmasiga tushishi va ularning vazifalari haqida

Kalit so‘zlar: yong‘in, yong‘in-qutqaruvchi, ruhiy tayyorgarlik, moslashuvchanlik, tezkorlik, ishonch, tezkor-taktik harakatlar, qiyinchilik, avariya-qidiruv ishlari, tabiiy ofatlar, moslashuvchanlik, portlash, o‘pirilish, psixoprofilaktika, psixokorreksiya.

Shaxsiy tarkibni yong‘inlarni bartaraf etish uchun ruhiy faoliyat va zaruriy bilimga ega bo‘lishlarini ta‘minlash, yong‘inlarni bartaraf etishda o‘tayotgan har bir daqiqani qadrlash, o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha yetuk mutaxassis darajasini shakllantirish, tabiiy ofatlar va boshqa omillarni bartaraf etish, yong‘inlarni o‘chirish va insonlarni qutqarishda doimiy ruhiy shaylikni tayyorlash, asosiysi yakka tartibda va guruh tarkibida tezkor-taktik harakatlarni amalga oshira olish, tezkor-taktik harakatlarni amalga oshirishda ular bilan yuz berishi mumkin bo‘lgan ruhiy holatlarni o‘zgarishi va noto‘g‘ri harakatlar vaqtida ogohlighi, yong‘in-qutqaruvchining idroki va aql-zakovatini oshirish bugungi kunda muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mustaqil harakat qilishda tezkorlik va moslashuvchanlik fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirish, belgilangan vazifalarni bajarishda barcha kuch va salohiyatini ishga solish va zarur vaqtda o‘z qobiliyatini hamda mustahkam irodani rivojlantirish, maqsadga erishishga intiluvchanlik va tashabbuskorlik, bardoshlilik va mardonavorlik, matonat va dadillik, tirishqoqlik va qat’iyatlik hislatlarga ega bo‘lish yong‘in-qutqaruvchilar oldiga qo‘yilgan vazifa ekanligi xech kimga sir emas.



Shuning uchun yong'in-qutqaruvchining umumkasbiy darajasiga alohida e'tibor qaratilishi ruhiy tayyorgarlikni to'g'ri shakllanishini talab etadi. Favqulodda vaziyatlar, shu jumladan yong'inlarning barcha xavfli holatlari, turli maskanlarda va har qanday vaziyatlarda shaxsiy tarkibning zimmasiga to'g'ri keladi. O'z o'rnida shaxsiy tarkibning to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi bilan birga favqulodda vaziyat, shu jumladan yong'inda qanday holat yuzaga kelishi, belgilangan vazifalarni bajarishda uni oldinda nimalar kutayotgani hamda qanday qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligi va ularni qanday bartaraf etish to'g'risida har bir yong'in-qutqaruvchi aniq fikr yuritishi "xayolan ko'rish" lozim.

Ushbu taxminlarni ruhiy holatdagi o'rni katta bo'lib, ular shaxsiy tarkibni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday qiyinchiliklarga avvaldan tayyor holda bo'lishini ta'minlaydi. Bu esa yuqorida qayd etilgan holatlarga ma'lum bir tayyorgarlikni yuzaga keltirib, ruhiy chidamlilikni oshiradi. Albatta, ushbu ishlarni bajarishda yong'in-qutqaruv bo'linmalari shaxsiy tarkibidan yuqori kasb mahoratini egallash va kasbga bo'lgan fidoiylilik talab etiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, sodir bo'layotgan barcha turdagi yong'inlar va ular oqibatida yuzaga kelayotgan moddiy zararlar barcha toifadagi yong'in-qutqaruv bo'linmalari shaxsiy tarkibining kasbiy tayyorgarliklari bilan bevosita bog'liqdir. Yong'inlarni o'z vaqtida va kam talofat bilan o'chirish bevosita favqulodda vaziyatlar vazirligi quyi tuzilmalaridagi yong'in-qutqaruvchilarning qay darajada tayyorligi, yong'inlarning asosiy yo'nalishlarini to'g'ri aniqlashi, yong'in texnik vositalaridan foydalana olishlari, har qanday vaziyatda to'g'ri hal etuvchi yo'nalishni belgilashlari va yong'inlarni o'z vaqtida yuqori darajada o'chirishlari bilan bog'liqdir.

Yong'in-qutqaruv bo'linmalari shaxsiy tarkibi oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajara olishlari, tutun, radiatsiya va harorat ta'siri sharoitlarda, portlash yoki binoning o'pirilish (qulash) xavfi mavjudligida, baland qavatli binolarda, yer to'lalarda, kunduzi, kechasi, tabiiy ofat hamda falokatlarini bartaraf etishda ularning doimiy shayligi va belgilangan vazifalarni a'lo darajada bajarishi ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Yong'in-qutqaruv bo'linmalari shaxsiy tarkibining ruhiy tayyorgarligi, ularning boshlang'ich, kasb, xizmat va jismoniy tayyorgarliklarining ajralmas bir qismidir. Buning ostida shuni tushunish kerakki maqsadli va maxsus tashkillashtirilgan (tayyorgarlik tizimida) "ishonchli" eng yuqori darajadagi yong'in o'chirish sharoitlarining yuqori samaradorligini ta'minlovchi shaxsiy



tarkibning yong'inlar, tabiiy ofatlar va boshqa omillarni bartaraf etishda ruhiy chiniqishini shakllantirishdan iborat ekanligini unutmash lozim.

Ruhiy tayyorgarlik - mutaxassislarning ruhiy va psixofiziologik sifatlarini optimallashtirishga, ushbu sifatlarini favqulodda vaziyatlar o'choqlaridagi faoliyatga moslashtirishga, ularda avariya-qidiruv ishlari boshlanishidan avval stressni kamaytiradigan, mutaxassis sog'lig'i va kasbiy ish qobiliyatining boshlang'ich holatini saqlab qolishga yordam beradigan adekvat, ya'ni aynan bir xil ruhiy holatni yaratishga yo'naltirilgan psixoprofilaktika va psixokorreksiya ishlari bo'yicha tadbirlar majmui.

Qutqaruvchilarda favqulodda vaziyatlar sharoitida harakatlanishda ruhiy holatni boshqarish malakasini shakllantirishga, tez ichki safarbarlik qobiliyatini rivojlantirishga; guruh ichida o'zaro hamkorlik malakasini ishlab chiqishga imkon beradi. Favqulodda vaziyatlar o'choqlarida ishlashga to'g'ri kelmasligini ko'rsatuvchi jiddiy psixofiziologik belgilar namoyon qilmagan shaxslarga nisbatan o'tkaziladi.

Ruhiy tayyorgarlik quyidagi turlari ajratiladi: umumiy, maxsus va maqsadli.

Ruhiy tayyorgarlikni olib borishning shakllari: ma'ruzalar va seminar mashg'ulotlari, qutqaruvchilar bilan yakka suhbatlar, ruhiy tavsiyalar, yakka va guruh-guruh bo'lib ruhiy treninglar o'tkazish.

Ruhiy tayyorgarlik, asosan, amaliy xususiyatga ega bo'lib, yong'in-qutqaruvchilarni bino, inshootlarning qismlarida, texnologik qurilmalarda va maxsus olovli yo'laklarda ruhiy tayyorlashda, yong'in-qutqaruv xizmatining u yoki bu garnizonidagi qo'riqlanayotgan obyektlarni aniq xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Har bir mukammal tashkillashtirgan va uslubiy to'g'ri bajarilgan mashg'ulot shaxsiy tarkibning nafaqat bilimi, mahorati, qobiliyati va kasbiy odatini oshirish bilan cheklanmasdan, balki ko'plab masalalarni ruhiy mantiqiy yechimini topa olishi, agar mashg'ulot oldindan rejalashtirilgan bo'lsa faqatgina o'rganish bilan chegaralanmasdan, shuningdek tezkorlik bilan to'g'ri qaror qabul qilish, matonatli, dovyuraklik, kuzatuvchanlik qobiliyatlarini rivojlanishini ta'minlaydi.

Ruhiy tayyorgarlik – bu mashg'ulot o'tkazadigan rahbarning yuqori darajadagi ilmiy-ruhiy tayyorgarligini, uslubiy jihatdan yuqori malakali murabbiyligini va moddiy-texnik jihatdan ta'minotni talab qiladigan kasbiy tayyorgarlikning ancha murakkab turi hisoblanadi.



Ruhiy tayyorgarlik uslubining o'zi xos afzalligi – umumiy tushunchalarga ega bo'lgan holda boshqa yo'nalishlardagi kasbiy tayyorgarlik metodikasini o'rganish hisoblanadi.

Shaxsiy tarkibning maxsus bilimlarga ega bo'lishi ruhiy tayyorgarlik metodikasini o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi, xususan yong'inlarni o'chirish bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish faqatgina amaliy o'qitishga asoslanadi, bu metodika yong'inni o'chirish bo'yicha shaxsiy tarkibni nafaqat tashqi jangovar sharoitlarga, balki ichki ruhiy jihatdan ham tezkor-taktik harakatlarni bajarish bo'yicha tayyorgarlikni talab qiladi, bu esa sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirishga shaxsiy tarkibni ruhiy jihatdan mukammal tayyorlashda muhim omil hisoblanadi.

Dars mashg'ulotlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sharoitlarni real tashqi tavsiflar (mavjud va yuzaga keladigan ruhiy ta'sir ko'rsatish) bo'yicha jangovar sharoitlarga yaqinlashtirish uchun ruhiy tayyorgarlik bo'yicha dars o'tkaziladigan joy, o'tkazish vaqti, dars mashg'ulotini o'tkazish sharoitlari, yong'inni yuzaga keltirish uchun talab qilinadigan imitatsiyalar, yong'inni o'chirishda qo'llaniladigan shartli yong'in o'chirish vositalari tanlanadi.

Yong'inni o'chirish bo'yicha ichki ruhiy sharoit dars mashg'uloti davomida kutilmagan holatlar, yuqori tezlik, sharoitning tezlik bilan o'zgarishi, vaziyatning izdan chiqishi, yuqori javobgarlik va mustaqil fikrlay olish, qattiq ruhiy zo'riqish holatlariga qarshi harakatlar, vaziyatning chigallashishi, bajariladigan vazifalarning murakkabligi, katta yuklanishning vaqt oralig'idagi ta'siri va h.k. lar bilan qo'shimcha ravishda to'ldirib borilishi mumkin.

Har bir yong'in o'chiruvchining o'z hamkasblariga, jangovar texnikalarning ishonchli ishlashiga va YO'Rga ishonishini alohida belgilab qo'yishimiz lozim. Yong'in o'chiruvchilar orasida o'zaro bir-biriga ishonish hissini uyg'otish, hamkasblarning bir-biriga bo'lgan ishonchini mustahkamlash ishlari ma'rifat va ma'naviyat, siyosiy-ijtimoiy, xizmat va jangovar tayyorgarlik darslarida amalga oshiriladi.

Ishonch – jangovar tajribani oshirish, kasbiy mahoratni yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Yangi ishga qabul qilingan yong'in o'chiruvchi lavozimidagi xodimlarga turli xildagi uzoq davom etadigan hamda murakkab yong'inlarni va ularni o'chirish tartibi bilan tanishtirish xodimning o'ziga bo'lgan ishonchini ma'lum bir darajada susaytirishi mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, sodir bo'lgan yong'inni o'chirishning qanchalik darajada murakkabligini xodimlarning to'g'ri tushunishlarini, bunga



ularning hurmat bilan qarashlarini va shu vaqtning o'zida yong'inni samarali o'chirish mumkinligiga bo'lgan ishonchni uyg'otish, buning uchun yuqori darajadagi kasbiy va ruhiy tayyorgarlikka ega bo'lish lozimligini, yong'inni o'chirishga kirishgan yong'in o'chiruvchi birinchi navbatda, o'ziga bo'lgan ishonchni yuksaltirishi qolaversa, yong'in o'chiruvchilar orasida hamjihatlikni ta'minlash, tezkor-taktik harakatlar vaqtida bir-birini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga ishonish kabi yuqori saviyadagi ruhiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.Абрамова.Г.С Практическая психология. М.2015
- 2.Атватер.И Даффи.К. психология для жизни. М.2008
- 3.Буюкас Т.М Основная и условия профессионального становления студентов-психологов. М.МГУ.2005
4. Myers. D. G psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers. 2010.-910 p.
- 5.Baratov Sh. R Psixologik xizmat: MagistrLAR uchun darslik. T: "Navro'z" nashriyoti, 2018.-344-bet
- 6.G'oziyev E.G' Umumiy psixologiya. T: "Universtitet" nashriyoti. 2012. 490-bet
- 7.Avezov O.R psixologiya nazariyasi va tarixi. T: "O'zbekiston faylasuflari jamiyati" nashriyoti
- 8."Yong'in o'chirish taktikasi". O'quv qo'llanma. E.E.Sobirov O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi. -Toshkent, 2021-yil. 426-bet.

